



ABUL HASAN MARG'INONIYNING “MAHOSIN UL KALOM” ASARINING
AHAMIYATI

Ibrohimov Nizomiddin Faxriddin o'g'li

O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya. Mazkur maqolda Abul hasan Marg'inoniy hamda uning asari “Mahosin ul-kalom” tuzilishi haqida berilgan. “Mahosin ul-kalom” asarining mazmuni, tuzilishi, nazariyalari haqida berib ketilgan.

Kalit so'zlar: Abul Hasan Marg'inoniy, “Mahosin ul-kalom”, aruz, qo'lyozma, tuzilish, qismlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается Абул Хасан Маргинани и структура его произведения «Махосин уль-Калам». Обсуждаются содержание, структура и теории произведения «Махосин ул-Калам».

Ключевые слова: Абул Хасан Маргинани, «Махасин уль-калам», аруз, рукопись, структура, части.

Annotation. This article is about Abul Hasan Marginani and the structure of his work “Mahosin ul-kalom”. The content, structure, and theories of the work “Mahosin ul-kalom” are discussed.

Keywords: Abul Hasan Marginani, “Mahosin ul-kalom”, aruz, manuscript, structure, parts.

Biror maqsad yo'lida tahsil ko'rish hali haqiqiy ta'lim bo'lmaydi. Ta'limning maqsadi ayrim qobilyatlar va samaralarni rivojlantirish emas, balki hayotimizga ma'no baxsh etishga ko'maklashishdir, o'tmishni idrok etishu kelajakni qarshi olishga mardona tayyorlanishga yordam berishdir. Ana shunday ta'limga olib boradiganlar ichida eng muhimi- jahon adabiyotini o'rganishdir.¹⁰⁴

Jahon adabiyotshunosligida ijodkor mahorati, shoiru adiblar ijodiy laboratoriyasining o'ziga xos xususiyatlari, badiiy asarning muayyan xalq yoki bashariyat adabiy-estetik tafakkuri takomilidagi o'rni masalalari yuzasidan izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni muttasil davom ettirish va yangi ilmiy natijalar bilan boyitish, individual ijod namunalari tahliliga asoslangan nazariy tadqiqotlarni takomillashtirish adabiyotshunoslik rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor badiiy mahorati masalasi poetik tafakkur tadriji, muallif ijodiy niyati va uning namoyon bo'lish shakllari, janr va obraz poetikasi, badiiy-estetik idealning ifoda usullari singari nazariy muammolar kesimida o'rganilib kelmoqda. Bu borada to'plangan ilmiy tajribani tahlil etish va takomillashtirish adabiyotshunoslik rivojida alohida o'rin tutadi.

¹⁰⁴Herman Hesse. Jahon adiblari adabiyot haqida.T. 2010.1b



O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz shoiru adiblar badiiy mahorati sirlarini o'rganishda muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. "Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor"¹⁰⁵ ekani hisobga olinsa, ushbu ilmiy natijalarni zamon talablari darajasidagi yangi tadqiqotlar bilan boyitish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda ulardan unumli foydalanish ilmiy ehtiyoj taqozosi ekani ayon bo'ladi.

Biz mumtoz adabiyotini o'rganish orqali o'sha xalqimizning o'sha davrning adabiyoti bilan tanishish balki zamonaviy adabiyotimiz namunalari bilan taqqoslashimiz, qiyoslashimiz va o'sha davr xalq adabiyotida mavjud bo'lgan uslub va yo'nalishlarni o'rganishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda yozuvchilari asarlarini o'qishimiz va mahorat bilan tarjima qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda o'rta osiyoda renessans davr bo'lgan, unda ilm-fan, san'at bilan bir qatorda adabiyot ham rivojlandi. Yurtimizdan qancha-qancha alloma-yu ulomolar, fozil-fuzalolar yetishib chiqdi, ularni qoldirgan ilmiy boyliklari bugunga kelib jadal o'rganib kelinmoqda.

Vatanimizning oldin vodiidan chiqqan adabiyotshunos olimdan biri, Hasan Marg'inoniydir. U kishi haqida deyarli ma'lumotlar mavjud emas, u haqida biror bir kitobda ma'lumotlar mavjud emas.

Fors olimlari u haqida quyidagi nazariyani ilgari suradilar: Abul-Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul-Jalil Farg'oniy Marg'inoniy Rashtoniy hanafiy faqihi bo'lib, milodiy 1197 yilda vafot etgan. Uning eng muhim asari "Kitob bidaya al-mubattadiy" nomli fiqhga oid risola va unga yozgan "Hidoya" nomli batafsil sharhidir. Uning ta'riflari sonidan ko'rinib turibdiki, Hadaya musulmonlar orasida juda mashhur bo'lgan. Ta'kidlash joizki, Marg'inon yoki Marg'ilon va Rashton Farg'ona viloyatlari, Seyhun daryosining janubida joylashgan.

Abu l-Hasan Nasr b al-Hasan al-Marg'inoniy V/XI asrda yashagan arab shoiri va adabiyotshunosi bo'lib, o'zining badiy (nutq va uslub arboblari) haqidagi risolasi bilan tanilgan. U Mavarinoniy Farg'onaning (O'zbekistonning hozirgi Marg'ilon shahri) Marg'inon shahrida tug'ilib, Xurosonning Zavzon shahrida "uning hukmdori Abu l-Qosim Abdulhamid Uning homiysi bo'lgan Yahyo", zamondoshi al-Baxarziy (vaf. 476/1075) o'zining "Dumyat al-qasr" antologiyasida berilib ketilgan.

Olimning bir asar bilan tarix sahifalariga kirgan bo'lib, uning nomi "Mahosin ul-kalom" bo'lib, "Gapning yaxshisi" degan ma'noda. Ushbu asar asosan tolibi ilmlar uchun maxsus aruzni, ilk balog'at tushunchani o'rganishi uchun zaminga bo'lgan.

Ushbu asar bugungi kunga qadar nashr qilinmagan, ilmiy muomulaga tortilmagan. Ushbu asarni butun dunyoda uch nusxasi bor, ulardan biri esa yurtimiz qo'lyozmalar markazida saqlanmoqda.

¹⁰⁵ Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдевори. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан. //Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.





“Mahosin ul-kalom” asarning tuzilishi:

1. Asarning ilk varoqlariga asarning nomi qizil yozuvda bo'lsa, hadis sharif berilib, u qora siyohda bitilgan. Ushbu hadis, yoshlarni qarilarda o'xshashi yaxshilik bor, qarilarni yoshlarga o'xshashida esa yomonlik borli kasb etadi.

2. Asarning kirish qismi, u basmala bilan hamd hamda na't berib ketiladi. Hamdda fотиha surasining ilk oyatlari “Alhamdulillah robbil alamiyn” bo'lsa, na't qismida esa “Sollohu alayhi vassalom” qo'llanilgan.

3. Kitob haqida ma'lumot berilishi. Unda ushbu kitobda adabiyotning eng go'zal satrlari chiroyli dadillanganligi mazmunida gap yuritiladi.

4. Qur'ondagi balog'atga to'xtab o'tish. Qur'oni karim so'zlaridagi har bir kalom mohiyatan va mazmunan boyligi ochib berilgan.

5. Kitobni yozilishda Allohdan murojaat so'ralgan bo'lib, Allohning tavfiqini o'ziga tilagan.

6. Kitobning bo'limlari ketma ket berilishi:

a) Ma'noyi tarsi'ida ushbu kitobda yuklatilgan asosiy ma'nolarni sanab o'tilib ketgan;

b) Annazmu qismida esa, shoirlarni she'riy parchalarning eng go'zal namunalaridan berilib ketilgan. Ushbu fasl ham o'z ichida qismlarga bo'lib ketilgan.

“Mahosin ul-kalom” asarida Abu Toyiyib, Alvalbu, Abu Fatih, Abul Tamom, Albasra, Albuti, Aljaf'ar alkatib, Ashshoshi va muallifning qator she'riy so'zlar aks etgan,

Abul Hasan Marg'inoniy she'riyat olamining vazn va ritmini ilmiy tahlil qilish bilan birga, ma'lumotlarni murakkab va aniq tarzda tizimlashtirdi. Keyingi olimlar uning ilmiy merosini soddalashtirishga harakat qildilar.

Marg'inoniyning “Al-Mahosin” kitobini tuzishdagi muhim manbalaridan biri Ibn Mu'tazning “Al-Badi” kitobini qayd etish mumkin. Bu ikki kitobning solishtirmasida Marg'inoniyning ko'plab misollari ushbu kitobdan olinganligini eslatib o'tishning o'zi kifoya. Albatta, ularning har ikkisi ham boshqa manba yoki boshqa shoir devonidan foydalangan deb taxmin qilish mumkin, lekin maqollarning tartibi va nasriy misollar bilan birga ayrim boblardagi o'rnini hisobga olsak, Marg'inoniy Ibn al-Muatazdan iqtibos keltirganligi ayon bo'ladi. Qolaversa, u bu Mu'tazni bir qancha hollarda ochiq-oydin keltirib, o'zining aniq talqinlarini keltiradi

Roduyoniy o'z kitobini arab olimi Nasr binni Hasanning “**Mahosin ul-kalom**” (33 badiiy san'at) nomli asariga suyangani holda yaratgan va unda 77 ta san'atni keltirgan.

Abul Hasan Nasr bin al-Hasan al-Marg'inoniy (1055 v.y.) “Mahosin alqalam” asarida arab aruziga oid konseptual qarashlar tizimlashtirib beriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu asar dunyo miqyosida aruz ilmini, balog'atli ilmi izchillik va sossalik bilan o'rgatishga turtki bo'ladigan qo'llanmadur.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalangan adabiyotlar:

1. “Mahosin-ul kalom” asari qo’lyozmasi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo'lyozma 2956-II inverter raqamili.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори. – Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузасидан. //Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.
3. Herman Hesse. Jahon adiblari adabiyot haqida.T. 2010.1b